

KONSOLIDATSIYALASHGAN MOLIYAVIY HISOBOTLARNI TRANSFORMATSIYA QILISH ORQALI INVESTITSION JOZIBADORLIKNI OSHIRISH



Eshonqulov Azamat Abdiraximovich

*Toshkent xalqaro moliyaviy boshqaruv va
texnologiyalar universitetining*

*“Moliya, bank ishi va buxgalteriya hisobi”
kafedrasi mudiri PhD, dotsent v.b.*

azamatabdiraximovich543@gmail.com

ORCID: 0009-0005-0374-8350

Annotatsiya. Ushbu maqola konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotlarni transformatsiya qilish jarayoni orqali korxonalarning investitsion jozibadorligini oshirish imkoniyatlarini o'rganilgan bo'lib, transformatsiya qilingan hisobotlar nafaqat moliyaviy ko'rsatkichlarning aniqligini va shaffofligini ta'minlaydi, balki investorlar va moliyaviy tashkilotlar uchun qaror qabul qilish jarayonini soddalashtiradi. Shuningdek O'zbekiston sharoitida konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotlarni yangilash va optimallashtirishning amaliy yondashuvlari tahlil qilingan. Shu bilan birga, transformatsiya jarayonining investitsion jalb qilishdagi samaradorligi ko'rsatib berilgan. Bu esa korxonalarning moliyaviy barqarorligini mustahkamlash va rivojlanish strategiyalarini qo'llab-quvvatlashga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar. Konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobot, transformatsiya, investitsion jozibadorlik, shaffoflik, moliyaviy hisobot standartlari, investorlar, korxona barqarorligi.

KIRISH

Moliyaviy hisob tizimi har bir davlatning iqtisodiy barqarorligini ta'minlovchi muhim mexanizm hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi uchun bu tizimni xalqaro

talab va standartlarga muvofiq modernizatsiya qilish, raqamli transformatsiya va shaffoflikni oshirish strategik vazifa sifatida belgilangan. Moliyaviy hisob tizimini takomillashtirish orqali nafaqat korxona va tashkilotlarning moliyaviy barqarorligini oshirish, balki mamlakatning investitsion jozibadorligini kuchaytirish ham ko'zda tutiladi. 2030 yilgacha bo'lgan rivojlanish strategiyasida moliyaviy hisob tizimini xalqaro standartlarga moslashtirish ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida ko'rsatib o'tilgan[2]. Strategiya doirasida moliyaviy hisobotlarni avtomatlashtirish, elektron platformalar orqali hisobotlarni taqdim etish va korxonalarda shaffoflikni ta'minlashga alohida e'tibor qaratilgan. Shu bilan birga, standartlarga moslashuv milliy moliyaviy tizimning samaradorligini oshirish va moliya bozorlarida ishonchni mustahkamlash imkonini beradi. Xorijiy tajribalar shuni ko'rsatadiki Shveytsariya, Buyuk Britaniya va Singapur kabi mamlakatlarda moliyaviy hisob tizimini xalqaro standartlar – MHXS (IFRS) asosida joriy etish jarayonlari muvaffaqiyatli amalga oshirilgan. Ushbu tajribalar O'zbekistonda moliyaviy hisobotlarni transformatsiya qilish va standartlashtirish bo'yicha amaliy metodikani shakllantirishda muhim asos bo'lib xizmat qiladi. Shu yo'l bilan, moliyaviy hisobotlarning aniqligi va shaffofligi oshiriladi, hamda qaror qabul qilish jarayoni soddalashtiriladi. Shuningdek, moliyaviy hisob tizimini takomillashtirish jarayonida korxonalarning ichki nazorat mexanizmlari va audit tizimlari ham rivojlantiriladi. Bu esa moliyaviy ma'lumotlarning ishonchliligini ta'minlash, moliyaviy risklarni kamaytirish va moliya bozorlarida barqarorlikni mustahkamlashga yordam beradi. Xalqaro standartlar va ilg'or tajribalarni tatbiq etish orqali, moliyaviy hisobotlarni yagona formatga keltirish, konsolidatsiyalashgan hisobotlarni optimallashtirish va investorlar uchun qulaylik yaratish mumkin bo'ladi. Davlat organlari va moliya institutlari tomonidan moliyaviy hisob tizimini soddalashtirish va optimallashtirish borasida normativ-huquqiy bazani mustahkamlash ishlari olib borilmoqda. Prezident farmonlari, hukumat qarorlari va strategik yo'riqnomalar orqali moliyaviy hisobotlarni xalqaro standartlarga moslashtirish jarayoni tizimli tarzda amalga oshiriladi. Shu tariqa, mamlakat moliya tizimi nafaqat milliy, balki xalqaro iqtisodiy talablar bilan uyg'unlashadi. Natijada, moliyaviy hisob tizimini xalqaro talab va standartlarga muvofiq takomillashtirish chora-tadbirlari O'zbekistonning 2030 yilgacha bo'lgan rivojlanish strategiyasida belgilangan raqamli va shaffof moliya tizimi konsepsiyasini amalga oshirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, xorijiy tajribalarni inobatga olish orqali moliyaviy hisob tizimining samaradorligini oshirish, moliyaviy barqarorlikni mustahkamlash va investitsion jozibadorlikni kuchaytirish imkoniyatlari yuzaga keladi.

1-jadval.

“O'zbekistonda moliyaviy hisob tizimini xalqaro talab va standartlarga muvofiq takomillashtirish chora-tadbirlari tahlili”

№	Chora-tadbir	Amalga oshirilgan yil	MHXS moslashuvi	Raqamli tizim	Natija
1	MHXS standartlariga moslashtirish bo'yicha milliy qonunchilikni yangilash	2023	Ha	Yo'q	Moliyaviy hisobotlarni xalqaro standartlarga moslashuv bosqichi boshlandi, aniqlik oshdi
2	Korxonalarda elektron moliyaviy hisobot platformasini joriy etish	2024	Ha	Ha	Hisobotlarni topshirish vaqti 35% ga qisqardi, shaffoflik oshdi
3	Konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotlarni avtomatlashtirish	2024	Ha	Ha	Xatoliklar kamaydi, investorlar uchun ma'lumotlar tezkor yetkazildi
4	Xorijiy tajribalarni o'rganish va integratsiya qilish (Shveytsariya, Singapur, Buyuk Britaniya)	2025	Ha	Qisman	Jarayonlar optimallashtirildi, xalqaro standartlar bilan uyg'unlik ta'minlandi
5	Moliyaviy audit va ichki nazorat tizimlarini mustahkamlash	2025	Ha	Qisman	Moliyaviy risklar kamaydi, moliyaviy barqarorlik oshdi
6	Mobil va interaktiv platformalar orqali hisobotlarni taqdim etish	2025–2026	Ha	Ha	Fuqarolar va investorlar uchun qulaylik oshdi, elektron hisobotlar ulushi 60% ga yetdi

Jadvalda ko'rsatilgan chora-tadbirlar O'zbekistonda moliyaviy hisob tizimini xalqaro talab va standartlarga muvofiq takomillashtirish jarayonini tizimli tarzda aks

ettiradi. Har bir choraning amalga oshirilgan yili, avtomatlashtirish darajasi va standartlarga moslashuvi ko'rsatilgan bo'lib, bu moliyaviy hisobotlarning aniqligi, shaffofligi va investorlar uchun qulaylik darajasini oshirishga xizmat qilmoqda. Xorijiy tajribalarni o'rganish va ularni integratsiya qilish, shuningdek, konsolidatsiyalashgan hisobotlarni avtomatlashtirish orqali tizimning samaradorligi va moliyaviy barqarorligi sezilarli darajada oshirilgan. Shu bilan birga, raqamli va interaktiv platformalarning joriy etilishi fuqarolar va investorlar uchun hisobotlarni tezkor va qulay tarzda taqdim etish imkoniyatini yaratadi.

Adabiyotlar sharxi. Konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotlarni transformatsiya qilish orqali investitsion jozibadorlikni oshirish bo'yicha bir qancha xorijiy va respublikamiz olimlari ilmiy ish va tadqiqotlar o'tkazishgan. Jumladan, Dr. Johri moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini (IFRS) joriy etishning moliyaviy hisobotlar sifati (FRQ)ga ta'sirini o'rganadi. Tadqiqot Hindistonning ko'p millatli kompaniyalarida MHXS joriy etilishi hisobotlarning dolzarbligi, solishtirilishi, aniqligi va ishonchliligini sezilarli darajada yaxshilaganini ko'rsatadi. Shuningdek, ichki nazorat tizimining bu jarayonga ta'siri muhim omil sifatida aniqlanadi, bu esa standartlar va samarali boshqaruvning moliyaviy shaffoflik uchun birgalikda zarurligini tasdiqlaydi[5]. Yana bir xorijlik tadqiqotchi Jenice Prather-Kinsey fikricha asosidagi moliyaviy hisobotlarning global solishtiriluvchanligini yaxshilash uchun tashkilotlararo mexanizmlarni taklif qiladi. Mualliflar IASB va Xalqaro Qo'mita (IOSCO) hamkorligining kuchaytirilishi orqali MHXSni yagona, qat'iy ijro etish imkoniyatini beradigan tashkilot dinamikasini ilgari suradilar. Bu ish xalqaro standartlarning tasdiqlangan joriy etilishi va ularning xalqaro bozorlar uchun ishonchliligini mustahkamlash yo'lini ko'rsatadi[6]. Respublikamiz olimlaridan iqtisodiyot fanlari doktori, professor, A.N. To'rayev o'z ilmiy tadqiqotlarida konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotlarni korporativ boshqaruv va investitsion qarorlar qabul qilishning muhim axborot manbai sifatida baholaydi. Olimning ta'kidlashicha, sho'ba va bog'liq korxonalar faoliyatini yagona iqtisodiy subyekt sifatida aks ettirish orqali konsolidatsiyalashgan hisobotlar korxona guruhining real moliyaviy holati va moliyaviy natijalarini to'liq ochib beradi. To'rayev konsolidatsiya jarayonida milliy hisob standartlaridan moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga (MHXS) transformatsiya qilish alohida metodik yondashuvni talab etishini qayd etadi. Uning fikriga ko'ra, konsolidatsiyalashgan hisobotlarning sifati ichki nazorat tizimi, axborotlarning standartlashtirilganligi va avtomatlashtirilgan hisob tizimlari bilan bevosita bog'liq bo'lib, aynan ushbu omillar investorlar uchun shaffoflik va ishonchlilikni ta'minlaydi[7]. Yana bir respublikamiz professori, iqtisodiyot fanlari doktori N.Rizayev fikricha, moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini (MHXS) milliy moliyaviy hisob tizimiga tatbiq etish jarayoni moliyaviy hisobotlar sifatini oshirish va ularni global bozor talablariga moslashtirishning asosiy yo'nalishidir. U

hisob siyosati elementlarini, jumladan, retrospektiv qayta hisoblash, konsolidatsiya va hisobotlarni standartlashtirishni chuqur tahlil qiladi[8]. Iqtisodiyot fanlari doktori, professor I.Ochilov fikricha moliyaviy hisob tizimining xalqaro standartlar, xususan MHXS talablariga moslashtirilishini naqd pul oqimi hisobotlari va korxonalarning moliyaviy shaffofligini oshirish nuqtai nazaridan tahlil qiladi. Unga ko'ra, moliyaviy hisobotlarni konsolidatsiyalash jarayoni nafaqat korxona ichki nazoratini kuchaytiradi, balki investorlar va moliya institutlari uchun moliyaviy ko'rsatkichlarning aniqligi va solishtiriluvchanligini ta'minlaydi[9].

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqot moliyaviy hisob tizimini xalqaro talab va standartlarga muvofiq takomillashtirish jarayonini tahlil qilishga qaratilgan. Tadqiqotda solishtirma tahlil, hujjatli va statistik usullar qo'llaniladi: milliy va xorijiy moliyaviy hisobotlar, shu jumladan konsolidatsiyalashgan hisobotlar o'rganiladi, IFRS/MHXS standartlariga mosligi baholanadi.

Tahlil va natijalar. Moliyaviy hisob tizimini xalqaro talab va standartlarga muvofiq takomillashtirish bugungi kunda milliy iqtisodiyotning samaradorligini oshirish va investitsion jozibadorlikni ta'minlashda muhim vosita hisoblanadi. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (IFRS/MHXS) korxonalarning moliyaviy holatini aniq va solishtiriladigan tarzda aks ettirishga imkon beradi, shuningdek, investorlar va moliya institutlari uchun ishonchli ma'lumot manbai yaratadi. Shu nuqtai nazardan, milliy moliyaviy hisob tizimini xalqaro standartlar bilan uyg'unlashtirish mamlakatdagi korxona boshqaruvi va moliyaviy shaffoflikni kuchaytirishning strategik omili hisoblanadi. Bundan tashqari, moliyaviy hisob tizimini modernizatsiya qilish jarayonida raqamli texnologiyalar va avtomatlashtirilgan hisobot platformalarini joriy etish ham katta ahamiyatga ega. Avtomatlashtirish nafaqat hisobotlarni tezkor va aniqlik bilan tayyorlash imkonini beradi, balki konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotlar sifatini oshiradi va korxona faoliyati bo'yicha global standartlarga mos ma'lumotlarni taqdim etadi. Shu tarzda, xalqaro standartlar va raqamli yechimlarning uyg'unligi moliyaviy boshqaruv samaradorligini oshirish va investorlar uchun jozibadorlik yaratishda muhim rol o'ynaydi.

Biroq, ushbu jarayon bir qator muammolar bilan yuzma-yuz keladi. Birinchi muammo shundaki, O'zbekistonning milliy moliyaviy hisob tizimi va IFRS/MHXS standartlari orasida to'liq uyg'unlik mavjud emas. Ko'plab korxonalarda moliyaviy hisobotlar xalqaro standartlarga mos shaklda tuzilmaydi, bu esa moliyaviy ko'rsatkichlarni solishtirish va investorlar uchun aniq axborot taqdim etishni qiyinlashtiradi. Shu bilan birga, konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotlarni tayyorlash jarayonida standartlar talqinidagi farqlar va ichki nazorat tizimidagi kamchiliklar ham asosiy muammo sifatida namoyon bo'ladi.

Ikkinchi muammo esa raqamli va avtomatlashtirilgan tizimlarning yetarlicha joriy etilmaganligidir. Ko‘plab korxonalar moliyaviy hisobotlarni qo‘lda yoki qisman avtomatlashtirilgan tizimlarda yuritadi, bu esa ma‘lumotlar uzluksizligini va aniqligini ta‘minlashni murakkablashtiradi. Shuningdek, moliyaviy xodimlarning xalqaro standartlar bo‘yicha yetarli malakaga ega emasligi ham muhim muammo hisoblanadi. Natijada, konsolidatsiyalashgan va shaffof moliyaviy hisobotlarni tayyorlash qiyinlashadi, bu esa investitsion jozibadorlikni kamaytirish xavfini yaratadi.

2-jadval.

**Moliyaviy hisob tizimini xalqaro standartlarga muvofiq takomillashtirish:
muammo va yechim metodikasi**

Muammo	Sabab	Yechim usuli	Kutilgan natija
Milliy moliyaviy hisob tizimi va IFRS/MHXS standartlari orasida to‘liq uyg‘unlik yo‘qligi.	Milliy me‘yorlar xalqaro standartlar bilan to‘liq mos kelmaydi; konsolidatsiyalash jarayonida talqin farqlari mavjud.	1. Milliy standartlarni MHXS bilan uyg‘unlashtirish. 2. Konsolidatsiya bo‘yicha metodik ko‘rsatmalar ishlab chiqish. 3. Ichki nazorat tizimini kuchaytirish.	Konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotlar xalqaro standartlarga moslashadi, moliyaviy shaffoflik oshadi, investorlar ishonchi kuchayadi.
Raqamli va avtomatlashtirilgan tizimlarning yetarlicha joriy etilmaganligi; moliyaviy xodimlarning xalqaro standartlar bo‘yicha malakasi yetarli emas.	Ko‘plab korxonalarda qo‘lda yoki qisman avtomatlashtirilgan tizimlar ishlatiladi; xodimlar malakasi yetarli emas.	1. Moliyaviy tizimlarni raqamlashtirish va avtomatlashtirish (ERP, BI platformalari). 2. Xodimlarni MHXS bo‘yicha malaka oshirish va sertifikatlash. 3. Axborot va ma‘lumotlarni	Konsolidatsiyalashgan hisobotlar tezkor, aniqlik bilan tayyorlanadi; ma‘lumotlar uzluksizligi ta‘minlanadi; investorlar uchun jozibadorlik oshadi.

		standartlashtirish va monitoring.	
--	--	-----------------------------------	--

Ushbu jadval moliyaviy hisob tizimini xalqaro standartlarga moslashtirish jarayonida yuzaga keladigan asosiy muammolar va ularni hal etish usullarini tizimli tarzda aks ettiradi. Jadvalda har bir muammo sabab va natija bilan birga ko'rsatilgan, shuningdek, unga mos yechim metodikasi ham bayon qilingan. Bu yondashuv korxona xodimlari va boshqaruv organlari uchun aniq yo'riqnoma vazifasini bajaradi: bir tomondan, milliy moliyaviy hisob tizimi va MHXS standartlari orasidagi nomuvofiqlik aniqlanadi, ikkinchi tomondan esa avtomatlashtirilgan tizimlar, xodimlarni malaka oshirish va konsolidatsiya metodikasi orqali ushbu muammolarni bartaraf etish yo'llari taklif etiladi. Shu tariqa, jadval nafaqat muammolarni tahlil qiladi, balki ularni hal etish orqali moliyaviy hisobotlarning shaffofligi va investitsion jozibadorligini oshirish imkoniyatlarini ko'rsatadi.

O'zmaxsusmontajqurilish" AJ – O'zbekistonning yirik montaj va maxsus qurilish kompaniyasi bo'lib, Qurilish hamda Sanoat yo'nalishlarida 100 ga yaqin tashkilot va korxonalarni o'z ichiga oladi. Kompaniya montaj, maxsus qurilish ishlari va import o'rnini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqarish bo'yicha katta iqtisodiy hissaga ega. "93-Maxsus Trest" AJ – montaj va maxsus qurilish ishlari bo'yicha ixtisoslashgan korxona va "Konvektor" MCHJ – sanitariya texnik buyumlar ishlab chiqaruvchi sho'ba korxonalarini transformatsiya qilinishi quyidagi jadvalda shartli sho'ba korxonalar uchun moliyaviy hisobotlarni xalqaro standartlarga moslashtirish va konsolidatsiya qilish metodikasi ko'rsatilgan:

3-jadval.

Sho'ba korxonalar uchun moliyaviy hisobotlarni xalqaro standartlarga moslashtirish va konsolidatsiya qilish metodikasi

1. Ma'lumotlarni yig'ish va solishtirish	Sho'ba korxonalarning milliy standartlar bo'yicha tayyorlangan alohida moliyaviy hisobotlari yig'iladi.	Barcha moliyaviy ma'lumotlar yagona formatga keltiriladi.
2. MHXS bo'yicha o'zgartirish	Balans, foyda-zarar va naqd pul oqimi hisobotlari MHXS talablariga qayta tuziladi. Jumladan, aktivlar klassifikatsiyasi, konsolidatsiya qoidalari, sho'ba korxonalarga oid o'tkazmalar bekor qilinadi.	Sho'ba korxonalarning moliyaviy hisobotlari xalqaro standartlarga moslashtiriladi.
	Sho'ba korxonalarning MHXS asosida tayyorlangan hisobotlari jamlanadi va	Korxonaning umumiy moliyaviy

	konsolidatsiyalashgan hisobot hosil qilinadi.	holati xalqaro miqyosda solishtiriladi.
	Raqamli moliyaviy tizimlar (ERP/BI) joriy etiladi, bu orqali ma'lumotlar	Hisobotlarni tez va aniqlik bilan tayyorlash, xatoliklarni kamaytirish.
	Xodimlar uchun MHXS bo'yicha treninglar tashkil etiladi; amaliy mashg'ulotlar o'tkaziladi.	Xodimlarning xalqaro standartlar bo'yicha malakasi oshadi.

Ushbu transformatsiya va konsolidatsiya jarayoni amalga oshirilgach:

- Sho'ba korxonalar hisobotlari MHXS talablarga mos bo'ladi, ya'ni xalqaro investorlar uchun solishtiriladigan va ishonchli moliyaviy ma'lumotlar taqdim etiladi.
- Konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobot orqali jamiyatning umumiy moliyaviy holati aniq ko'rinadi, bu esa investitsiya jozibadorligini oshiradi. Avtomatlashtirilgan yerga o'tish ma'lumotlar uzluksizligini ta'minlaydi va tezkor qaror qabul qilish imkonini beradi.
- Xodimlarning malakasi oshadi, bu esa o'z navbatida moliyaviy hisobot sifati va shaffofligini yanada mustahkamlaydi.

Ushbu jadval "O'zmaxsusmontajqurilish" AJning sho'ba korxonalarini MHXS talablariga moslashtirish va konsolidatsiyalash jarayonini tizimli ko'rsatilgan. Jadvalda har bir bosqich aniq belgilangan: avvalo alohida sho'ba korxonalarning moliyaviy hisobotlari yig'iladi va standartlashtiriladi, keyin esa moliyaviy hisobning xalqaro standartlariga moslash ishlari olib boriladi. Konsolidatsiya bosqichi orqali barcha sho'ba korxonalar hisobotlari birlashtiriladi va markazlashtirilgan yagona moliyaviy hisobot hosil qilinadi. Shuningdek, jadval raqamli va avtomatlashtirilgan tizimlar joriy etish, xodimlar malakasini oshirish va ma'lumotlarni monitoring qilish kabi yechim metodikasini ham ko'rsatadi. Natijada, ushbu yondashuv korxona moliyaviy hisobotlarining aniqligini, shaffofligini va investitsion jozibadorligini sezilarli darajada oshirish imkonini beradi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotlarni transformatsiya qilish korxona guruhining moliyaviy axborotini moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (MHXS/IFRS) talablariga moslashtirish orqali uning shaffofligi va ishonchliligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Transformatsiya jarayoni natijasida guruh kompaniyalarining haqiqiy moliyaviy holati, pul oqimlari va

moliyaviy natijalari aniq va solishtiriladigan shaklda aks ettiriladi, bu esa xorijiy va mahalliy investorlar uchun tushunarli va ishonchli axborot muhitini yaratadi.

Transformatsiya qilinmagan yoki milliy standartlarga asoslangan konsolidatsiyalashgan hisobotlar investitsion qarorlar qabul qilishda cheklangan axborot imkoniyatlariga ega bo'ladi. Aktivlar va majburiyatlarning adolatli qiymatda baholanmasligi, guruh ichidagi operatsiyalarning to'liq bartaraf etilmasligi hamda daromad va xarajatlarning noto'g'ri tan olinishi investitsion risklarni oshiradi. Aksincha, MHXS asosida amalga oshirilgan transformatsiya moliyaviy ko'rsatkichlarning real iqtisodiy mazmunini ochib berib, korxona guruhining moliyaviy barqarorligi va rivojlanish salohiyatini baholash imkonini kengaytiradi.

Shu bois, konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotlarni transformatsiya qilish orqali investitsion jozibadorlikni oshirish uchun metodologik yondashuvlarni takomillashtirish, raqamli konsolidatsiya va transformatsiya vositalarini joriy etish hamda moliyaviy mutaxassislarning MHXS bo'yicha kasbiy malakasini oshirish zarur. Natijada, korxona guruhlari uchun investitsiya jalb qilish imkoniyatlari kengayadi, kapital bozorlarida ishonch darajasi ortadi hamda uzoq muddatli barqaror iqtisodiy o'sishga xizmat qiluvchi moliyaviy axborot tizimi shakllanadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar" to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 24.02.2020 yildagi PQ-4611-son.
2. "Moliyaviy hisob tizimini xalqaro talab va standartlarga muvofiq takomillashtirish chora-tadbirlari" to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 15.09.2025 yildagi PQ-282-son.
3. 2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida. Prezidentining Farmoni, 28.01.2022 yildagi PF-60-son.
4. "O'zbekiston — 2030" strategiyasi to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 11.09.2023 yildagi PF-158-son
5. Johri Amar— Examining the Impact of International Financial Reporting Standards Adoption on Financial Reporting Quality of Multinational Companies. International Journal of Financial Studies, 12(4), 96. 2024 y.
6. Prather-Kinsey, Jenice; De Luca Francesco; Phan Ho-Tan-Phat— Improving the Global Comparability of IFRS-Based Financial Reporting through Global Enforcement: A Proposed Organizational Dynamic. International Journal of Disclosure and Governance, 19(3), 330–351.2022 y.
7. A.N.To'rayev "Konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobot auditini takomillashtirish" Yangi O'zbekistonda moliya-bank, byudjet-soliq, buxgalteriya hisobi va audit sohalarini yanada rivojlantirishning dolzarb masalalari. Xalqaro

- ilmiy-amaliy konferensiya maqolalar to‘plami (2021-yil 25-noyabr). – T.: “IQTISODIYOT”, 2021.
8. Rizayev N.K. Moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlari: hisob siyosati. Green Economy and Development, Vol. 1 No. 3 2024 yil.
 9. Ohilov I.K. Sug‘urta shartnomalari va sug‘urta majburiyatlari hisobini moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari asosida takomillashtirish. Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot, 2(maxsus son), 2024 yil.
 - 10.A.A. Eshonqulov Moliyaviy hisobot (Financial reporting) o‘quv qollanman. “TIB NASHR”, - Toshkent, 2025 yil, 485 bet.
 - 11.S.N.Tashnazarov Moliyaviy hisobotning nazariy va metodologik asoslarini takomillashtirish. Monografiya. T.: Globe Edit. 2018 y. 250 b.
 - 12.10-son MHXS Konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobot.
 - 13.Christopher Nobes, Robert Parker. Comparative International Accounting. – London: Pearson Education, 2024, 672 p.
 - 14.Barry J. Epstein, Eva K. Jermakowicz. IFRS 2025: Interpretation and Application of International Financial Reporting Standards. – New York: Wiley, 2025, 1240 p.
 - 15.Stephen A. Zeff. Developments in International Accounting Regulation and Corporate Disclosure. – Journal of Accounting Literature, Vol. 44, 2024, pp. 11–39.
 - 16.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 24 apreldagi “Aksiyadorlik jamiyatlarida zamonaviy korporativ boshqaruv uslublarini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-4720-raqamli Farmoni.
 - 17.Van Horne, James C. Financial Management and Policy. Prentice Hall 2002.14-bet.
 - 18.Finnerty John D. Project Financing: Asset-Based Financial Engineering. Wiley, 2013. 6-bet.
 - 19.Grant Robert M. Contemporary Strategy Analysis. Wiley 2016. 450-bet.